



AN`ANAVIY XONANDALIKDA PEDAGOGLIK VA UNING ISHLASH USLUBLARI

Shahrisabz davlat pedagogika institutio 'qituvchisi

Fazliddinov Zokir

Tel: +998977627374

Annotatsiya: *Qadimdan an'anaviy musiqa ijrochilari maqomlarning asosiy xususiyat laridan, elementlaridan bo'lmish tarkibiy qismlariga mansub usullariga katta e'tibor bilan qarashgan.*

Kalit so'zlar: *vokal-texnik, Stakkato, ovozni, xromatizm, Musiqiy qobiliyati, Ovoz tembri, Yosh ashulachi, Xalq ashulalari, Ohang yo'nalishi*

„An'anaviy xonandalikda ovozni maromga solish, ovoz sozlash ashulachilikka tayyorlashda yordamchi o'rinni bajarsa, munosib tanlangan badiiy asar kuylovchini tarbiyalovchi manbaa bo'lib xizmat qiladi. To'g'ri tanlangan cholg'u asaridan cholg'uchi yaxshi rivojlangandek, ashulachi ham to'g'ri tanlangan ashulada rivojlanib yaxshi ashulachi bo'lib yetishadi.

O'quvchining qobilyatiga qarab raspevka va vokalizlarda bir yilgacha ushlansa, ba'zilarini bir necha oydan so'ng badiiy asarga o'tkazish mumkin. Chunki boshlang'ich ovozni ishlatishdagi oddiy yo'llarni tushunib ovozni boshqara bilsa, boshlang'ich davrda xalq qo'shiqlari juda qulay material bo'lib hisoblanadi.

Asarni baholashda uning o'quvchiga foydali tomonini hisoblab, musiqiy tuzilishi tomonini tahlili, vokal texnik tomoni murakkab joylari, undagi matn mazmuni, ma'no va his-tuyg'ularini hisobga olish kerak. Bularning hammasi asarning qanchalik ijro uchun o'ziga xos qiyinchiliklar darajasidan iborat ekanligini ko'rsatadi. Asarni o'quvchining musiqiy rivojlanganligi, ijrochilik tayyorgarligiga qarab tanlash kerak. Asarni yengildan murakkabga qarab davom



ettirish darkor. O'quvchining imkoniyati, kuchi yetmaydigan asar uni o'sishini to'xtatadi va katta ziyon yetkazadi. Asarning kuy yo'nalishiga ya'ni xromatizm, interval, ovoz harakatini keskin o'zgartirilishi va sayqallar kabilarga ahamiyat berish kerak. Musiqiy qobiliyati yaxshi rivojlanmagan o'quvchilarga ohang, kuyni o'zlashtirishdan ko'ra ritmni o'zlashtirish qiyinroq kechadi. Jo'rnovozlikda ham o'ziga xos xususiyatlar bor. Xalq ashulalarida esa unison ijro qilinishi ashulachilikka katta yordam beradi. Asarni vokal-texnik tomonini tahlil qilinganda uning diapazoniga, tessiturasiga, o'quvchi kuchi yetadimi, yo'qmi, avjiga chiqa oladimi, intervallar qulaymi, yo'qmi shunga ahamiyat beriladi. Ya'ni asarning kuchi o'quvchining imkoniyati darajasida bo'lishi kerak.

Yosh ashulachiga temp (sur'at) tez, sekin, notalarning uzun, qisqaligi, yarim, chorak, nimchorak soto'x notalar ancha qiyinchilik paydo qiladi. Cho'zib aytishda nafas yetmasligi mumkin. Sho'x ashulada 8, 16 talik notada tez, ravon, tutilmay kuylash talab qilinadi. Buning uchun mohirlik, texnikani mukammal egallagan bo'lishi kerak. Vokal-texnik qiyinchiliklar mayda, sayqal, qochirimlarda uchraydi. Bunga maxsus tayyorgarlik talab qilinadi. Masalan, farshlag, mordent, gruppetto, trel, kadensii va passajlar, flirovkalar qiyinchilik keltiradi. Bularni yaxshilab o'zlashtirish lozim. Stakkato va portamento aytish qiyinchilik tug'diradi. Ohangni tez aytish, kuy, ohang bilan aytiladigan so'zlar ham vokal-texnik qiyinchiliklardan biri. Bu qiyinchiliklar ovozning turlanuvchan, o'zgarishlarga boyligi, egiluvchanligi, nutq organlari vositasidagi tovush hosil qilish usuli, tomoq, hiqqildoq va nafasning chidamliligiga bog'liq.

Ovoz tembri, mayin, yumshoq, yoqimli, o'ziga xos xususiyatlari, sifatlarini, sezilar-sezilmas, nyanslar, nozik farqlarini, asar ma'nosi, ijrochi asar mazmuniga qarab o'zgartirish uslublarini o'zlashtirish ham qiyin vokal-texnik rejalarga kiradi. Bu rang-baranglik musiqaning his-tuyg'uga to'la kechinmalari orqali paydo bo'ladi. Ba'zida ovoz tembrini ongli ravishda o'zgartirishga to'g'ri keladi.



Masalan; ikki shaxs aytishuvi, so‘zlashuvi uchun yozilgan asarlarda har biri o‘ziga xos boshqa temblarini ko‘rsata bilishi zarur. Asar dinamikasiga alohida baho berish kerak. Yosh xonanda f, P ni ijro qilishi oson emas. Ularning ijrosini o‘zlashtirishi yuqori o‘quvchilarga berish kerak. Malakasi yetarli bo‘lmagan o‘quvchilarga keskin o‘zgaruvchan dinamik almashuvlari, keng dinamik burilishlari, rivojlanishlari bor asarni bermaslik lozim ularga o‘rtacha ovozda yozilgan erkin, bemalol cho‘zib, muloyim, xush ovozda aytiladigan xalq qo‘shiqlarini bergan ma’qul.

O‘quvchiga asarni tanlashda shu holatlarini; ya’ni filirovkani o‘zlashtirib, kerakli, yetarli muddatli dars olgandan so‘ng o‘zlashtirishi mumkinligini, ovozning sifatini buzmay kuchaytirish va kamaytirishni oson emasligina hisobga olib, bir vaqtning o‘zida musiqiy, vokal texnik xususiyatlarini diqqat-e’tibor markazida tutiladi. Ma’nosi yashirin his tuyg‘uli badiiy asarlarni, ijrodagi qiyinchiliklari kuy yo‘nalishida bo‘lmasa ham, asar ma’nosini, xarakterini, his-tuyg‘usini ochib berish ancha qiyin ekishligi tufayli uni mohir o‘quvchiga berish kerak. Ammo ichki emotsional kechinmalarni, his-tuyg‘uni ochib berish uchun ijrochi mohir va yetuk bo‘lishi lozim. Ko‘p asarlar tuzilishi murakkab, juda nozik, nafis yozilgan bo‘lib, ijrochidan yuksak musiqiy va ashulachilik madaniyatini talab qiladi. Ba’zi yosh o‘qituvchilar va bitiruvchilar tahlil qilishni bilmasligi sababli pedagogik amaliyot darsini o‘tkazishda asarning so‘zi, kuyiga qarab oson ekan deb, uning orqasida qanchalik musiqiy, vokal-texnik va ijrochilik qiyinchiliklar borligini ko‘rmaydilar. Shuning uchun asar tahliliga juda katta ahamiyat berib, diqqatni ajratishni tavsiya qilamiz. Bebaho san’at asarlari yosh o‘quvchilarga eng yaxshi o‘quv quroli bo‘lib, mumtoz asarlarni tushunib yetishga yordam beradi.

Ohang yo‘nalishi cholg‘u yo‘nalishi bilan bir yo‘lda rivojlanib boradi. Kuy qiyofalari nihoyatda turli-tuman, har xil, so‘z ma’nosiga qarab, cho‘zib yoki sho‘x aytiladigan asarlar klassik ashulachidan to‘g‘ri sozlangan ovoz, ovoz yo‘nalishi



silliq, mayin, ravon, toza intonatsiya, egiluvchan, ya'ni ovoz cholg'u asboblarida ijro etilganday bir xilda jarangini talab qiladi. Boshlang'ich davrda yosh ashulachiga ovozni to'g'ri sozlash va boshqarish asosiy vazifa hisoblanadi. So'zning ma'nosi diniy bo'lgan asarlar, yana tabiat go'zalligi kuylanadigan asarlar, uchinchi sevgi kechinmalari ifodasi, zavq olish, sevgilisining naqadar go'zalligini aks ettiruvchi asarlar katta zavq shavq, jo'shqinlik bilan yoqimliroq, chiroyliroq, matnni chiroyli talaffuzi orqali ta'sirli ifodasiga erishiladi.

Ko'pchilik asarlar, vazmin, og'ir, xotirjam, mamnunlikni ifodalaydi. G'amgin, kuchli his-tuyg'ularni ham major holatda tasvirlab berib, yuksak reja va kayfiyat, xotirjamlikni ifodalaydigan holatda kuylanadi. Bu fan o'zbek mumtoz adabiyoti tarixi, madaniyatshunoslik, elshunoslik kabi fanlar bilan bog'liq holda o'rganiladi. O'zbek an'anaviy ashula ijrochiligida yana bir muhim omil maqomlarni o'ziga xosligi va tabiiyligini ifodalovchi ornamental xarakterli bezaklarda yorqin ijrosiga erishishdir. Maqomlarni boy va rang-barang uslublarini o'zlashtirishda har bir an'anaviy ashulachi vokal ijroviy asoslarini umumiy jihatlarini bilishi katta ahamiyatga ega. Masalan; nafasning ravon yo'liga erishish. Ijro paytida qay holatda aytilishi kabi omillardir. Bu tadbir albatta, o'zbek an'anaviy ashulachiligi asoslari bilan birga, bir-birini to'ldirsa, maqsadga muvofiq bo'ladi. Benihoya maqom va maqom yo'llaridagi klassik musiqa namunalarini ijrosi jarayonida azaldan, o'tmishda yashab ijod qilgan ustoz sanatkorlar quyidagi xilma xil ornamental (sayqal beruvchi) bezaklarni ko'llashgan.

- Izofa - musiqa ohang bo'laklari yoki musiqiy jumalarni ketma-ket bog'lanishi (legato tarzida).
- Sakrata nolish - bir ovozdan ikkinchi ovozga uzluksiz o'tish. Bunda birinchi tovushni, nisbatan urg'u berib kuylash uslubi.



- Tebratma harakat - xar bir notaga o‘ziga xos yuqoriga ko‘tarib yoki pastga tushirib aytishlar tarzida bezak berish.

- Tebratma nolish - jumllarning kerak - kulminatsion joylarida o‘z tovushini xarakterli tebratish.

- Molish-glisandagi yaqin, notalarni bir-biriga ulovchi Qochirim - texnikaviy bezak. U oddiy va murakkab melizm - bezaklar: forshlag, trel, mardent kabilarni o‘z ichiga oladi. Muqim notaga qo‘shimcha kiritiladigan tovush

- Nola - tovushning ashulachi yarim ton doirasida tebranuvchi ohang bilan bezashi.

- ifodalashi. Zangula - ashulachi o‘z ovozi bilan xilma-xil qo‘ng‘iroq tovushlarini An‘anaviy ashulachi har bir jumlani tamomlash paytida ma‘lum darajada kuchliroq nafas bilan tugatilishi (jumlaning oxirgi so‘zlariga turib) musiqa ohanglari esa uzilib qolmasligi shart. Nolish-ovozni bir pardadan ikkinchi pardaga sirg‘alishi. Bidratma-Ikki yonma-yon tovushni tebranishi Sayqal-mordent-uch tovushli, besh tovushli sayqal To‘lqinlatish-vibroto-tovushni tebranishi, titrashi. 1 tongacha yuqori O‘rama-yarim tongacha yuqori yoki pastga ovozni sirg‘alishi. Xong-Ashulani so‘zsiz ijro qilish. Kashish-bir tongacha glisanda-sirg‘anish.

Qadimdan an‘anaviy musiqa ijrochilari maqomlarning asosiy xususiyatlaridan, elementlaridan bo‘lmish tarkibiy qismlariga mansub usullariga katta e‘tibor bilan qarashgan. Ma‘lum darajada, avvalo, usullarni puxta egallashga intilishgan. Ko‘pchilik ustozlar esa ashula aytishni doira chertish bilan ham bog‘laganlar. An‘naviy musiqamiz tuzilishi jihatidan murakkab va xilma-xildir. 2 hissali usullardan boshlab 9-11 hissali usullargacha, bir yarim taktli usullardan boshlab 24 taktli usullargacha mavjud. Shulardan lank usullar Talqini, Nasr, Savt Muxammas (16 tt), Saqil (24tt) kabilarni alohida ta’kidlamoqchimiz. Bu usullarni



har bir an'anaviy ashulachi tushunib yetgan xolda o'zlashtirishi talab etiladi. Buning uchun usullarni muntazam mashq qilish kerak.

Xalq an'anaviy professional musiqasi bo'lmish maqomlarni nazariy va amaliy o'zlashtirish, asosan, qadimdan an'anaga kirgan xalq og'zaki uslubda, notaga olingan manba'lar asosida o'qituvchi talabaga o'rgatadi. Bu tadbirda asosiy mezon mavjud chop etilgan Shashmaqom nota yozuvlari bo'lsa, og'zaki uslubda o'zbek musiqasiga, ana'naviy ijrochiligiga xarakterli bo'lgan ijro (ornamental) uslublari o'rgatiladi. Bundan tashqari xilma-xil ijro talqinlari, rang-barang maqom uslublari, kompozitsion ahamiyati shogirdga zamonaviy talqinda tushuntirilishi zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Kadrlar tayyorlash milliy dasturi. Barkamol avlod orzusi. – Toshkent: O'zbekiston, 1998.- 31-61 b.
2. Karimov I.A. Barkamol avlod - O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. Barkamol avlod orzusi. -Toshkent: Sharq, 1999. – 8-30-b.
3. Musiqa ta'lim va ma'naviyat "Toshkent" 1998 yil
4. Ta'lim taraqqiyoti "Sharq" nashriyoti matbaa konserti 1999 yil. 5. G.M. Sharipova "Musiqa tarbiyasi metodikasi" fanidan ma'ruzalar matni. "Toshkent" 1997 yil